# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ–153-son qaroriga muvofiq, har yili noyabr oyi mamlakatimizda “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” sifatida e’lon qilingan.

https://lex.uz/uz/docs/-7511145

Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchilar:

Ma’ruzachi: Jo‘rayev Sirojbek O‘rol o‘g‘li

# Reja:

1). Kibermadaniyat tushunchasi.
2). Kiberxuquq,kiberjinoyatchilik
3). Phishing (soxta xabarlar) Brauzerlar va Elektron pochtada himoyalanish.
4). Telegram kanal, WhatsApp, Instagram… kiberxavfsizlik choralari.
5). Parol yaratish va boshqarish.

CYBER SECURITY











- **Kibermadaniyat** — bu internet va raqamli texnologiyalardan madaniyatli, axloqli, xavfsiz, mas'uliyatli va qonunlarga rioya qilgan holda foydalanish qoidalari majmuasidir.
- CYBER SECURITY



# Kibermadaniyat

**Kibermadaniyat quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

**Kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish** (parol, ma’lumotlar himoyasi)
**Onlayn etikaga amal qilish** (odoblilik, hurmatli munosabat)
**Raqamli izni to‘g‘ri boshqarish;**
**Feyk xabarlarni ajrata bilish;**
**Ijtimoiy tarmoqlardan mas’uliyat bilan foydalanish;**
**Kiberjinoyatchilikdan ehtiyot bo‘lish.**

**Kiberxavfsizlik** deganda insonlar, tizimlar va ma’lumotlarni kiberhujumlardan himoya qilish tushuniladi.

Bu maqsadga erishish uchun turli texnologiyalar, jarayonlar va siyosatlardan foydalaniladi. Katta korxonalar uchun kiberxavfsizlik umumiy xavf-xatarlarni boshqarish strategiyasining muhim qismidir.

## Joriy yilda O‘zbekistonliklarning kartalaridan 50 mln $ o‘g‘irlangan.

O‘zbekistonliklarning bank kartalaridan kamida **603 milliard so‘m** (50 million dollar) o‘g‘irlagan va mazkur holat bo‘yicha 58 mingdan ortiq jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

**Hakerlik hujumlari asosan xorijiy davlatlardan turib amalga oshirilgan.**

Shu sababli barcha O‘zbekiston fuqarolaridan o‘ta hushyor bo‘lish va *shubhali havolalarni bosmaslik tavsiya etiladi.*



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

**31-modda.** Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, **shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish**, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim **yozishmalari**, **telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega.**

Ushbu **huquqning cheklanishiga faqat qonunga** muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yiladi.



# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI

**33-modda.** Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan **axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.** Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart sharoitlar yaratadi. **Axborotni izlash, OLISH VA TARQATISHGA BO‘LGAN HUQUQNI CHEKLASHGA** faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, **shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi.**



*Telegram, instagram yoki boshqa ijtimoiy tarmoqda* bir kishini haqorat qilsa sizga ancha qimmatga tushishi mumkin aslida, **agar u inson sizni sudga bersa:**

**Mamuriy javobgarlik kodeksining 41-moddasiga** asosan **Haqorat qilish**, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish
-eng kam ish haqining **"yigirma baravaridan qirq baravarigacha"** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.



**2024-yil 19-yanvar** kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan [O‘RQ-899-sonli] qonun bilan bir qator kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan, **Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi** kodeksga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, **Kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish,** o‘tkazish yoki *ayirboshlash,* litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish,

**Anonim kripto-aktivlar mayningi bilan shug‘ullanish**, kripto-aktivlarni hamda huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, **mansabdor shaxslarga BHMning 30 baravaridan 40 baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

BHMning 100 baravarigacha miqdorda jarima;

2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;

1 yilgacha ozodlikni cheklash;

1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.



# **Phishing** – soxta e-mail yoki sayt orqali parolni olish;

Muammolarni aldab, u yerdan parollar yoki boshqa ma’lumotlarni oladi.

**Maqsad:** foydali ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki pul talab qilish.

**Usul:** Yolg‘on elektron pochta xabarlari, web-saytlar yoki xabarlar yuboriladi.

**Misol:** Bank yoki ijtimoiy tarmoq nomidan kelgan soxta xabarlar.









# *Taniqli korporativ brendidan foydalinishga asoslangan firibgarlik.*

Firibgarlikning mazkur ko‘rinishida taniqli yoki yirik kompaniyalar nomidan foydalanuvchiga xabarlar yuboriladi. Bunda xabarlarda kompaniya tomonidan o‘tkazilgan biror tanlovda g‘alaba qozonilganligi haqidagi tabriklar bo’lishi mumkin.

Unda shuningdek, zudlik bilan qayd yozuvi ma’lumotlari va parolni o‘zgartirish kerakligi so‘raladi.



***Mavjud bo‘lmagan havola.*** Fishing hujumining mazkur turida biror veb saytga o‘xshash bo‘lgan veb saytga murojaat amalga oshirilishiga jalb qilinadi. Masalan, www.PayPal.com manzili *www.PayPai.com* manzili sifatida yuborish mumkin. Bu holda kamdan-kam holda foydalanuvchilar “l” harfini o‘riniga “i” harfi borligiga e’tibor berishadi.

Havolaga murojat qilinganda esa www.PayPai.com veb saytga o o‘xshash, biroq soxta veb saytga tashrif buyuriladi va talab **kiritilgan to‘lov kartasi ma’lumotlari kiritiladi.**



**Nordpass.com** saytida parolingizni qanchalik murakkab darajada ekanlgini aniqlashingiz mumkin.




nordpass.com/?gad=1&gclid=Cj0KCQjwpompBhDZARIsAFD_Fp9Td4n5MBv1dTH-L1njSu8mbWWtxRS0hDCL5lhecLorane7uhiia74aA
Яндекс Маркет
Яндекс
Google
O'zbek
tiliga tarjima qilindi
Asl matnni ko'rsatish
NordPass
SHAXSIY
BIZNES
Xususiyatlari
fido ALLIANCE
NordPass - sizning raqamli hayot menejeringiz
NordPass bilan onlayn hayotni tashkil qiling — parollar, kalitlar, kredit kartalar va boshqalar uchun xavfsiz yechim.
Kuchli parollar yarating.
Parollarni hamkasblar bilan xavfsiz baham ko'ring.
Ma'lumotlaringiz buzilganligini bilib oling.
Email
john.smith@nord
Password


Яндекс Маркет
Яндекс
Google
O'zbek
tiliga tarjima qilindi
Asl matnni ko'rsatish
NordPass
SHAXSIY
BIZNES
Xususiyatlari
Narxlash
Blog
Yordam
Case Study
BEPUL VOSITALAR
Foydalanuvchi nomi generatori
Biznes nomi generatori
Parol generatori
Parol kuchini tekshirgich
Ma'lumotlarni buzish skaneri
Parol almashish vositasi
KOMPANIYA
Biz haqimizda
Maydonni bosing
Karyera
Yordam markazi
Biz bilan bog'lanish
KASHF QILING
NordVPN
NordLayer
NordLocker
Shimoliy xavfsizlik

# Mening parolim qanchalik xavfsiz?

Parollaringiz yomon aktyorlar uchun oson tanlash yoki yo'qligini tekshirish uchun **bir oz vaqt ajrating.**












Ro‘yxatdan joy olgan **eng ishonchsiz parollar** raqamlardan tuzilgan parollar hisoblanadi. Quyida bu boradagi statistika keltirilgan.

1
- 12345 paroli (2 591 854 marta parol buzilgan).

2
- 123456 paroli (37 615 252 marta parol buzilgan).

3
- 123456789 paroli (16 694 411 marta parol buzilgan).

# Maxfiy ma’lumotlaringizni shifrlang

HOME SERVICE ABOUT US CONTACT US

Qurilmalaringizdagi maxfiy ma’lumotlarni himoyalashning eng yaxshi yo’li ularni **shifrlashdir**. Shifrlash yordamida qurilmadagi barcha ma’lumotlarni butunlay o’qib bo’lmaydigan qilish mumkin. Shifrlangan ma’lumotlarni faqat parolga yoki shifrni ochish kalitiga ega bo’lgan shaxs o’qishi mumkin.








# Antivirusdan foydalaning va operatsion tizimni yangilab turing.

Yaxshi antivirus dasturi qurilmalaringizni ma’lumotlaringizni o’g’irlashi, zararlashi yoki yo’q qilishi mumkin bo’lgan zararli dasturlardan himoya qiladi. **Litsenziyalangan antivirus dasturidan foydalaning.**



Shuningdek, antivirus dasturi va operatsion tizimni doimiy ravishda **yangilab turing.**
Eng yaxshisi, dasturni avtomatik ravishda yangilanadigan qilib sozlang.



# Foydalanilgan adabiyotlar.



**1.** S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev;  Axborot xavfsizligi: Darslik O‘z R Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TATU. - Qayta nashr. - T. Fan va Texnologiya, 2017. - 372 b.

**2**. S.K.Ganiev, A.A.Ganiev, Z.T.Xudoyqulov. Kiberxavfsizlik asoslari: O‘quv qo‘llanma, – T.  “Nihol print” OK, 2021. – 224 b.



**3.** Ganiyev C.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. T.:  TATU,  2007.

**4.** S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, K.A.Tashev; Axborot xavfsizligi darslik T.Aloqachi 2008. 383-b

**5.** https://t.me/secpol2,
https://t.me/cyber_102
https://t.me/infosec_blog


Thank your
for your
attention